ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ELBOYEVA MAHLIYO POLVONQULI QIZI

BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 373.091.3:821.512.133

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctoral of philosophy(PhD) on pedagogical sciences

Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi
Bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish……. ..5

Элбоева Маҳлиё Полвонқули қизи
Использование современных педагогических технологий в обучении детской литературе……..23

Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi
Use of modern pedagogical technologies in teaching children's literatur……25

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ .....……...…….. …

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ELBOYEVA MAHLIYO POLVONQULI QIZI

BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5262 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Jurayeva Gulnoza Axmatovna**
filologiya fanlari doktori, prof. v.b

Rasmiy opponentlar: **Abduvalitov Ergash Buranovich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Matchanov Sapa Murodovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “ 7 ” 05 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (384 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ 21 ” 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil “ 21 ” 04 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

Q.B.Yo‘ldoshev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, filol.f.d., professor

S.Ashirboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi,filol.f.d., professor

Сканировано с CamScanner

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi global ta’lim tizimida jahonda turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha mustaqil izlanishlar olib borish, jumladan, bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni amaliyotga joriy etish hamda o‘quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish masalasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro miqyosda belgilangan “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish”[1] konsepsiyasida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tizimli holda tatbiq etish ta’lim taraqqiyotining muhim belgisi sifatida qaralmoqda. Bolalar adabiyotini o‘qitish mazmunini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda ta’lim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilg‘or yondashuvlar va texnologiyalar yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, muayyan o‘quv materiali asosida muammoli vaziyatlar yaratish, real hayotiy masalalarga e’tibor qaratish hamda shaxsning bilish jarayonlarini rivojlantirishga oid pedagogik-psixologik yondashuvlardan samarali foydalanishga alohida urg‘u berilmoqda. Ushbu tadqiqotlar bolalar adabiyotini o‘qitishda ta’lim mazmunini o‘quvchilarning yaratuvchanlik va ijodiy tashabbuslarini rag‘batlantiruvchi interfaol, innovatsion va kognitiv pedagogik texnologiyalar asosida boyitishga xizmat qilmoqda. Shu yo‘nalishda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongi va dunyoqarashini yuksaltirish, adabiy ta’limda o‘qish savodxonligini yuksaltirish muhim vazifalardan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhiy va intelektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[2] singari vazifalarning belgilanishi bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativlik, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga doir zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini adabiy ta’lim jarayonlariga tatbiq etish hamda izlanish faoliyatiga yangicha yondashish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil

[1] Innchcon declaration / Education 2030. Towards inchisive and editable quality education and lifelong learningfor ale (Word Education Forum, 19–22-may, 2015-y. Inch eon, Republic of Koreya).

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4997-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hijjatlari to‘plami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.

6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvur yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bolalar adabiyotida badiiy mahorat, lirik qahramon, hajviy va yumoristik obrazlar yaratish bo‘yicha mamlakatimizda B.Jamilova, D.Rajab, G.Jo‘rayeva, K.Turdiyeva, M.Jumaboyev, M.Qurboniyozov, N.To‘xtayeva, O.Safarov, Q.Qahramonov, R.Barakayevlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan[3]. Bolalar adabiyotini o‘qitish masalalari S.Matchonov, Q.Yo‘ldoshev, R.Niyozmetova, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, G.Mamatova, G.Berdialiyeva, X.Hamroqulovalarning izlanishlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy-estetik sifatlarini shakllantirish, fikrlashga o‘rgatish, mustaqil ishlarni tashkil etish, adabiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish, sinfdan tashqari o‘qishni tashkil etish nuqtayi nazaridan yoritilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlari E.Eshchonov, H.Omonov, J.Yo‘ldoshev, M.Ochilov, N.Xo‘jayev, N.Saydahmedov, O‘.Tolipov, S.Mirhayitova, S.Madyarova, S.Usmonov, SH.Xolmatov va N.Azizxo‘jayevalarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan[4].

MDH olimlaridan: V.A.Koxanova adabiyot o‘qitishda innovatsion texnologiyalar; B.Bespalko pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari; M.Klarin o‘rganishdagi innovatsiyalar: metafora va modellar: xorijiy tajribani tahlil qilish; B.Zaysev zamonaviy pedagogik texnologiyalar; L.Shevsova adabiyotlarni taqdim etish usuli; T.Y.Yeremin, Y.A.Lukovina, Z.A.Grisenko, I.V.Rogojina, E.A.

[3] Ражабов Д. 80-йиллар ўзбек болалар шеъриятида поетик маҳоратнинг айрим масалалари: Фил. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2002; Жўраева Г. Ўзбек болалар шеъриятида ҳажвия (XX–XXI аср материаллари асосида): Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2022; Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006; Турдиева К. Ҳозирги замон болалар шеъриятида маънавият масаласи: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Тўхтаева Н. Истиқлол даври ўзбек болалар шеъриятининг етакчи хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Матчанов С, Қурбониёзов М. Болалар адабиёти ижодий-услубий изланишлар. – Toshkent: Ҳамидов Н. Ҳ, 2009; Safarov O. Bolalar adabiyoti va folklor. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015; Қаҳрамонов Қ. Болалар адабиётида реалистик принципларнинг шаклланишида адабий танқиднинг роли: Филол фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1988; Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyotida poetik tafakkur yangilanishining omillari va tamoyillari: Filol. fan. d-ri ... diss. – Buxoro, 2022.

[4] Omonov H, Xo‘jayev N, Madyarova S, Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009; Mirhayitova S. Pedagogik texnologiya. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020; Йўлдошев Ж. Усмонов С. Педагогик технология асослари. –Toshkent: O‘qituvchi, 2004; Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши: Насаф, 2000; Xolmatov Ш. Ўқув жараёнини технологик ёндашув асосида ташкил этишнинг дидактик имкониятлари: Пед. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 2006; Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2019; Azizxo‘jayev N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.

Asonova, O.B.Buxina, I.Arzamaseva, S.Nikolayevalar tomonidan adabiy ta’limda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish muammolari tadqiq etilgan[5];

Jahon pedagog olimlaridan: B.Faberman, R.Musina bolalar va o‘smirlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar; B.Sherif, S.Burt, A.Naylor, A.Vud, J.Vilsonlarning ilmiy ishlarida maktab ta’limida she’riy asarlarni yangi metodlar va pedagogik texnologiyalar asosida o‘rgatish imkoniyatlari tahlilga tortilgan[6].

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bolalar adabiyotini o‘qitishda bola ruhiyati va qiziqishiga uyg‘un holda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlarini tizimlashtirish;

bolalar adabiyotini o‘qitishdagi mavjud murakkabliklarni tavsiflash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilash;

bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda o‘quvchilarning o‘quv faolligini oshirish uchun interfaol texnologiyalardan foydalanishni amaliy jihatdan takomillashtirish;

bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5–6-sinflarida bolalar adabiyotini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘qitish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro, Samarqand viloyatlari va Toshkent shahridagi maktablarning 352 nafar 5–6-sinf o‘quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bolalar adabiyotini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

---

[5] Кларин М.В. Инновации в обучении: метафоры и модели: Анализ зарубежного опыта. – Москва: Книга, 1997; Зайцев В.С. Современние педагогических технологие. – Челябинск, 2012; Кохановой В.А. Технологии и методики обучения литературе. – Москва: Флинта, 2016; Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989; Шевцова Л. Методика преподование литературы. – Витебск: ВГУ им П.М.Машерова, 2012; Еремина Т.Я. Педагогические мастерские: инновационные технологии на уроках литературы. – Москва: Просвещение, 2013; Луковкина Ю. А. Методика обучения литературному чтению в начальной школе. – Москва: Ульяновск, 2023; Гриценко З.А. Детская литература методика приобщения детей к чтению. – Москва: Издательский центр Академия, 2008. – 320 с; Рогожина И.В. Современные педагогические технологии на уроке литературы. – Москва: Педагогика и психология, 2008; Асонова Е.А, Бухина О. Б. Детская и подростковая литература и современная дидактика. – Москва: История педагогического и психологического образовани, 2020; Арзамасцева И., Николаева С. Детская литература. – Москва: Академия, 2012.

[6] Фаберман Б.Л., Мусина Р.Г. Методические рекомендации по развитию критического мышления. – Москва: Книга, 2002; Wilson J. Our future: How kids are taking action. – London: Second Story Press, 2019.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot muammosiga oid pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, kuzatish, suhbat, anketa, so‘rovnoma kabi ijtimoiy-pedagogik, pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, olingan tajriba-sinov ishlarini matematik-statistik qayta ishlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bolalar adabiyotini o‘qitishda bolaning ruhiyati va qiziqishlariga mos asarlar tanlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari tizimli shakllantirilgan va bu jarayonda Sharq mutafakkir olimlarining ilmiy-adabiy merosi, adabiyot o‘qitishdagi tajribalari, zamonaviy mutaxassislarning ilg‘or yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirilib, ta’lim mazmuni metodologik jihatdan boyitilgan;

umumta’lim bosqichlarida bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishdagi murakkabliklar va mavjud muammolar qiyosiy-tanqidiy tahlil qilingan va ularni samarali hal etish uchun ilmiy-pedagogik tamoyillar, jumladan, aniqlik, to‘liqlik, zamonaviylik, yoshga moslik va ketma-ketlik asosida mazkur o‘quv jarayonini takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqilgan;

adabiy ta’limda bolalar adabiyotini o‘qitishda o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun “Tasavvur fantaziyasi”, “SWOT”, “PNI”, “Intervyu” va “Eng yaxshi o‘qituvchi” kabi interfaol texnologiyalar tizimli ravishda o‘quv jarayoniga kiritilishi va ularning izchil qo‘llanilishi o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi tahlillar asosida dalillangan;

bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda fanlararo integratsiyaga alohida urg‘u berish, STEAM ta’lim texnologiyasi va raqamli vositalardan biri bo‘lgan Plickers dasturi joriy qilinishi natijasida darslar elektron qurilmalar yordamida o‘tilishi an’anaviylik va zamonaviylik tamoyillariga muvofiq ta’lim jarayonini takomillashtirishi aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bolalar adabiyotini o‘qitishda o‘quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari, aqliy qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olingan holda asarlar tanlangan;

5–6-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturlariga muvofiqlikda to‘garak dasturlari ishlab chiqilgan;

bolalar adabiyoti namunalarini “Plickers” dasturi asosida o‘qitishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan oliy ta’limda “Bolalar adabiyotini o‘qitish” fanining o‘quv dasturi mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yondashuvlar ilmiy-metodik jihatdan asoslangani, adabiyot o‘qitishning so‘nggi ilmiy yutuqlari va ishonchli manbalarga tayanilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik tahlillar vositasida aniqlangani, xulosa va metodik tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda natijalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgiladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati umumiy o‘rta ta’lim tizimida bolalar adabiyotini o‘qitishga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirishda ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishda ilgari surilgan ilmiy-nazariy g‘oyalar, amaliy tavsiyalar “Bolalar adabiyotini o‘qitish”, “Adabiyot” darsliklari va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘la oladi. Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida “Bolalar adabiyotini o‘qitish” fanidan ma’ruza matnlari tuzishda ilmiy-metodik qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasidagi ilmiy tadqiqot ishi natijalari asosida:

umumta’lim bosqichlarida bolalar adabiyotini o‘qitishdagi murakkabliklar va mavjud muammolar qiyosiy-tanqidiy tahlil qilingan va ularni samarali hal etish uchun ilmiy-pedagogik tamoyillar, jumladan, aniqlik, to‘liqlik, zamonaviylik, yoshga moslik va ketma-ketlik asosida mazkur o‘quv jarayonini takomillashtirishga doir taklif va ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan RZ-202004165-raqamli “Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqiy kompitensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish (amaliy olima ayollar granti)” amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-noyabrdagi 04/1-4249-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarga bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitish orqali og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarining rivojlantirilishiga erishilgan;

bolalar adabiyotini o‘qitishda bolaning ruhiyati va qiziqishlariga mos asarlar tanlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari tizimli shakllantirilgan va bu jarayonda Sharq mutafakkirlarining ilmiy-adabiy merosi hamda adabiyot o‘qitishdagi tajribalari zamonaviy mutaxassislarning ilg‘or yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirilib, ta’lim mazmuni metodologik jihatdan takomillashtirishga doir ilmiy xulosalardan 6-sinf yangi avlod Adabiyot darsligini yaratishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazining 2024-yil 16-apreldagi 01/11-1-134-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini shakllantirishga, badiiy asar tahlili orqali atrofida sodir bo‘lgan voqealarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, mantiqli qaror qabul qilishni rivojlantirishga erishilgan;

adabiy ta’limda bolalar adabiyotini o‘qitishda o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun “Tasavvur fantaziyasi”, “SWOT”, “PNI”, “Intervyu” va “Eng yaxshi o‘qituvchi” kabi interfaol texnologiyalar tizimli ravishda o‘quv jarayoniga kiritilishi va ularning izchil qo‘llanilishi o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga oid metodik tavsiyalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan IL-402104474 “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan

(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-iyun 04/1-1469-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda ularning ijodiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikning dastlabki ko‘nikmalarini singdirish orqali interfaol texnologiyalaridan maqsadli foydalangan holda ularning o‘qish va tushunish savodxonligini rivojlantirishga erishilgan;

bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda fanlararo integratsiyaga alohida urg‘u berish, STEAM ta’lim texnologiyasi va raqamli vositalardan biri bo‘lgan Plickers dasturi joriy qilinishi natijasida darslar elektron qurilmalar yordamida o‘tilishi an’anaviylik va zamonaviylik tamoyillariga muvofiq ta’lim jarayonini takomillashtirilganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan IL-402104474 “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-iyun 04/1-1469-son ma’lumotnomasi). Natijada umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining bolalar adabiyoti namunalarini o‘qishda analitik o‘qish, badiiy matn bilan ishlash va asar mohiyatini idrok etish ko‘nikmalari shakllantirilgan.

Tadqiqot ishlarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Ishning tuzilish tartibi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 163 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy etilgani, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Umumta’lim maktablarida bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy-amaliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bolalar adabiyotini o‘qitishga oid nazariy qarashlar, pedagogik texnologiyalarning milliy metodikadagi ahamiyati hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Adabiyot” o‘quv dasturlari va darsliklarida bolalar adabiyotining taqdim etilishi masalasi tahlilga tortilgan.

Bolalar adabiyoti bugungi kunda yosh avlodning aqliy, ruhiy va estetik kamolotiga katta hissa qo‘shib, ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirish yo‘lida xizmat qilayotgan muhim adabiy hodisadir. Bolalar adabiyotida badiiylik bilan bir qatorda ma’rifiylik ham yetakchi o‘rin tutadi. Psixologlarning ta’kidlashicha, 10–12 yoshdagi o‘quvchilarda hayvonlar, sarguzashtli voqealar, har xil ko‘rinishdagi mavjudotlarga qiziqish baland va shunday syujetdagi asarlarni o‘qishga moyillik kuchliroq bo‘ladi. Shu asosda bolalar adabiyoti mazmuniga yangicha yo‘nalishlar kirib kelganini ta’kidlash joiz. Asosiy e’tibor yosh qahramonlar xarakteri tahlili masalasiga qaratilishi, shakl va mazmun jihatdan yangicha tamoyillar, o‘zgarishlar kasb eta borgani bunga isbot bo‘la oladi. Metodist olim S.Matchonov ta’kidlaganidek, “bolalar adabiyotining so‘nggi yillardagi rivojlanish yo‘llari xususida so‘z yuritganda, avvalo, ijodiy an’ana va yangilanishlar, badiiy tafakkur borasidagi evrilishlar, qardosh va jahon adabiyoti bilan ichki aloqadorlik, jamiyat bilan bog‘liqlik unda qay darajada o‘z ifodasini topayotganiga e’tibor qaratilishini tabiiy hol deb tushunmoq kerak”[7].

Pedagogika va psixologiya fanlarida bolaning yosh davrlari bilan bog‘liq xususiyatlar va ruhiyatining bir-biridan farq qilishi asoslab berilgan. Bolalar adabiyoti ijodkordan o‘z kitobxonining yosh xususiyatlari, ruhiyati, saviyasi va qiziqishlarini nazarda tutishni talab qiladi. Shu sababdan, bolalar kitobxonligi quyidagi uch asosiy guruhga bo‘linadi:

1) 2 yoshdan 6–7 yoshgacha – maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar kitobxonligi;

2) 7 yoshdan 11–12 yoshgacha – kichik maktab yoshdagi bolalar kitobxonligi;

3) 12–13 yoshdan 16–17 yoshgacha – o‘smirlar kitobxonligini tashkil qiladi[8].

O‘smirlar kitobxonligining asosiy xususiyati rang-barang bo‘lib, bunday asarlar mustaqil fikrlashga, turli masalalarga xilma-xil usullar bilan yechim topishga undaydi. Bu yoshdagi o‘quvchilar o‘zlari o‘qigan asarlaridan ma’lum bir

[7] Матчонов С. Ижодий индивидуаллик, услубий ранг-баранглик // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2013 – № 3. – Б. 16.

[8] Safarov O va boshq. Bolalar adabiyoti. – Buxoro: Turon zamin ziyo, 2019. – B. 18.

andoza olishga moyildirlar, shu bois qahramonlar o‘z xatti-harakatlari va so‘zlari orqali o‘quvchilarga ibrat bo‘ladi.

Professor Q.Yo‘ldoshevning ta’kidlashicha, bugungi ilg‘or pedagogikaning e’tibori mutaxassis tayyorlashdan shaxs shakllantirishga ko‘chgan. Ya’ni pedagogikaning diqqati tarbiyalanuvchi shaxsini har jihatdan kamol toptirishga, uni o‘ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, o‘zganing qarashlariga moslashishni o‘ylamaydigan, ijodkor, tashabbuskor, mas’uliyatni zimmasiga olishdan cho‘chimaydigan, tavakkal qilishga qodir, faol inson qilib shakllantirishga qaratiladi[9]. Shu nuqtayi nazardan bolalar adabiyotini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, boshqarish, baholash va tahlil qilish bosqichlarini qamrab oladigan ilmiy-amaliy yondashuv sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu o‘quv jarayonining har bir bosqichini texnik va informatsion vositalar yordamida chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur tizim o‘qitish jarayonini yanada samarali amalga oshirish uchun o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ko‘pgina ilmiy manbalarda pedagogik texnologiya uch asosiy aspektda o‘rganilishi zarur deb hisoblanadi. Jumladan, *ilmiy aspekt*da – o‘qitishning maqsadi va mazmuni ilmiy asoslanadi, jarayon esa to‘liq loyihalashtiriladi. Bu bosqichda pedagogik texnologiya samaradorligi, pedagogik jarayonning nazariy jihatlari va ta’siri ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganiladi. *Tavsifiy aspekt*da esa, o‘quvchilarni rejalashtirilgan natijalarga olib keluvchi o‘quv jarayonining algoritmi ishlab chiqiladi. Ushbu algoritm ta’lim mazmuni, metod va zarur texnologiyalarni izchil bayon etadi, bu esa maqsadga erishishda qat’iy yondashuvni ta’minlaydi. *Amaliy aspekt*da – pedagogik texnologiyaning bevosita qo‘llanishi, ya’ni o‘qitish jarayonini amalda qanday tashkil etish ko‘zda tutiladi. Qayd etilgan uch aspektning uyg‘unlashuvi orqali pedagogik texnologiya yanada mukammallashadi va natijadorligi oshadi.

Bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda aynan shu uch aspektdan foydalanish muhim ahamiyatga ega, chunki bu yondashuv bolalar dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyotini o‘qitishning asosiy maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy salohiyatini rivojlantirish, ularning tasavvur doirasini kengaytirish, xulq-atvorni shakllantirish, mustaqil va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Shuningdek, bolani turli vaziyatlarda uddaburonlik bilan yo‘l topishga o‘rgatish maqsadi ham ko‘zda tutiladi. Har bir yosh guruhiga, masalan, 1–11 yoshdagi bolalarning o‘zlashtirish darajalariga qarab texnologiyalar moslashtiriladi.

Tavsifiy aspektda bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitish maqsadi, ularning qahramonlari ichki dunyosini ochib berish diqqat markazida turadi. Badiiy asardagi qahramonlar xarakteri, his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlari, yozuvchining kitobxon harakatlariga bo‘lgan munosabati orqali bolalarda qahramonlarga achinish, ular bilan birga qayg‘urish yoki xatolarini tanqid qilish hissi ham shakllanadi. Buning uchun pedagogik texnologiyalar yordamida dars jarayonining aniq algoritmi ishlab chiqiladi.

[9] Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 23.

Bolalar adabiyotiga oid namunalarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali quyidagi jihatlarga e’tibor berish maqsadga muvofiq:

1. Boladagi mavjud imkoniyatlar – diqqatni jamlash, aqliy mushohada yuritish, ijodiy izlanish, faollik darajasi va nutqiy malakasini hisobga olish;

2. O‘quv jarayonida muayyan algoritmni tuzib olish (dars bosqichlari uzviyligi, bolalar adabiyotiga oid namunalarning bir-birini to‘ldiruvchi ketma-ketligi, ta’limiy vositalarning mavjudligi);

3. O‘quv jarayonini mohirlik bilan boshqarish;

4. Ma’lum bir loyihani amalga oshirishda darsning ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlari qay darajada amalga oshayotganini nazorat qilib borish;

5. Dars jarayonida til imkoniyatlari va turli qo‘shimcha vositalar: texnika turlari, musiqa, ertak, topishmoq, maqol, she’r, rebus va hokazolardan unumli foydalanish.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning maqsadi o‘quvchilarga nafaqat asar mazmunini tushunish va tahlil qilishni o‘rgatish, balki ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham qaratilgan. Bobda quyidagi yondashuvlar o‘quvchilarning bu ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam berishi ilmiy dalillangan:

1. *Matnni chuqur o‘rganish* (Close Reading). Bu usul badiiy asar tahliliga asoslanadi. O‘quvchilar matndagi asosiy mavzular, ramzlar va fikrlarni aniqlash orqali asarning ichki mazmunini tushunadilar. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning diqqatni bir joyga jamlash va analitik tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. *Interfaol muhokamalar*. Bolalar adabiyotini o‘qitishda o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin ifodalashga chorlaydigan interfaol usullar muhimdir. Guruhli muhokamalar va debatlar orqali asardagi murakkab masalalar bo‘yicha turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish mumkin.

3. *Vizualizatsiya va multimediadan foydalanish*. O‘quvchilarni asar muhitiga chuqurroq sho‘ng‘itish uchun rasm, video, animatsiya va boshqa vizual vositalar ishlatiladi. Bu usul nafaqat asarning hissiy va estetik jihatlarini yanada aniqroq anglashga yordam beradi, balki bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi.

4. *Muallif kontekstini o‘rganish*. Badiiy asarlarni tarixiy va ijtimoiy kontekstda o‘rganish orqali asar mazmunini chuqurroq anglash mumkin. Muallifning hayoti va yozilgan davr haqida ma’lumotlar berish asar tahlilini yanada boyitadi.

5. *Ijodiy yozuv mashqlari*. O‘quvchilarni asar qahramonlaridan biri sifatida xat yozishga yoki voqealarni o‘z nuqtayi nazaridan davom ettirishga undash ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

6. *Rol o‘ynash va dramatizatsiya*. Qahramonlar rollarini taqsimlab, sahnalashtirish orqali o‘quvchilarning asarni his qilish va uni jonliroq idrok etishlari ta’minlanadi.

7. *Analitik yondashuvlar*. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shu orqali matndagi asosiy muammolarni aniqlash va ularga turli nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadilar.

8. *Gamifikatsiya*. O‘yinlashtirilgan darslar orqali o‘quvchilarning asar mazmunini o‘zlashtirish jarayoni yanada qiziqarli va interfaol bo‘ladi. Masalan, asar qahramonlari tabiatini yoki ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish bo‘yicha viktorinalar yoki kvestlar tashkil qilish mumkin.

9. *Metaforalar va ramzlar bilan ishlash*. Adabiy asarlardagi metafora va ramzlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga erishiladi. Bu yondashuv ularga matndagi yashirin ma’nolarni aniqlash va talqin qilish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchining asar mutolaasi orqali faqat estetik zavq olishini emas, balki hayotiy masalalar bo‘yicha fikr yuritish va muhokama qilish qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Jumladan, o‘quvchilar 5-sinf “Adabiyot” darsliklarining “Ertaklar olamida” bo‘limida “Uch og‘a-ini botirlar”, H.Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, Aka-uka Grimmlarning “Botir tikuvchi” ertaklari; “Bolalikning beg‘ubor olami” bo‘limida esa M.Osimning “Zulmat ichra nur” qissasi, Oybekning “Fanorchi ota” hikoyasi va “Bolaning ko‘ngli poshshoh” singari asarlari bilan tanishadi. Ularning har biri bolaning yoshiga va ruhiyatiga mos keladi[10].

6-sinf “Adabiyot” darsligining “So‘zda sehr bor” rukni ostida jahon bolalar adabiyotidan L.Hyuzning “Rahmat sizga, xonim”; “Fantastika va sarguzashtlar olami” rukni ostida H.Shayxovning “Birinchi sinov”, R.Bredberining “Bir kunlik yoz”; “Rangin tuyg‘ular” rukni ostida esa O. Uayldning “Baxtli shahzoda” asarlari keltirilgan. E’tiborni tortgan jihat shuki, yuqoridagi asarlar bolaning yoshi, qiziqishi va ruhiyatiga mos holda tanlangan bo‘lsa-da, ko‘proq g‘arb adabiyotiga murojaat qilingan. Fikrimizcha, bu yoshdagi bola ruhiyati va qiziqishlarini inobatga olgan holda F.Musajonovning “Orzuga ayb yo‘q”, “Bir qultum buloq suvi”, L.Mahmudovning “Yo‘lda”, “Ko‘zoynakli bola” asarlarini kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu asarlarda o‘zbekona qadriyat va urf-odatlar, bugungi hayotiy voqealar hamda bu yoshdagi bolalarning o‘y-xayollari, tashvishlari, xatti-harakatlari badiiy aks ettirilgan.

6-sinfda bolalar adabiyotiga oid adabiy materiallarni tanlashda bu yoshdagi o‘quvchilarning o‘ziga xos ruhiy-jismoniy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Tadqiqotimizda ushbu sinf uchun bolalar adabiyoti namunalaridan adabiy material tanlashda quyidagilarga asoslanish ma’qul deb topildi:

1. Asarning o‘tkir syujetliligi.
2. Avantyuralarga va nozik ruhiy tahlillarga boyligi.
3. Fantastik-sarguzasht mazmunga egaligi.
4. Janr jihatdan xilma-xilligi
5. O‘quvchining yoshi va qiziqishiga uyg‘un bo‘lishi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash usullari”**ga bag‘ishlangan

[10] Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 42–104.

bo‘lib, bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ularni takomillashtirish yo‘llari hamda STEAM, SWOT, “Tasavvur fantaziyasi”, “Eng yaxshi yordamchi o‘qituvchi”, Plickers kabi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

“Tasavvur fantaziyasi” texnologiyasi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, tasavvur va tafakkur chegaralarini kengaytirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyadir. Ushbu texnologiya yordamida o‘quvchilar badiiy matnlarni idrok etish jarayonida o‘z tasavvurlari orqali mazmunni o‘zgacha talqin qilish, yangi g‘oyalar yaratish va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Texnologiya asar mazmunini chuqur his qilish imkonini beradi. Har bir o‘quvchi o‘z xayolini ishga solib, asar mazmuniga xos yondashuvni taklif qiladi.

“Tasavvur fantaziyasi” texnologiyasini qo‘llash bosqichlari:

1. Asosiy tushunchalarni shakllantirish: o‘quvchilarga asar mazmuni, undagi asosiy g‘oya va obrazlar tushuntiriladi.

2. Ijodiy vazifalar berish: “Personajning keyingi taqdiri qanday kechadi?”, “Agar voqea boshqa joyda sodir bo‘lsa, nima bo‘lardi?” kabi savollar orqali o‘quvchilar tasavvur qilishga undaladi.

3. Natijalarni muhokama qilish: har bir o‘quvchi o‘z g‘oyalarini taqdim etadi va o‘qituvchi bilan birgalikda tahlilga kirishadi.

4. Yakuniy xulosa chiqarish: o‘quvchilar ijodiy yondashuv natijasida asar haqida yangi va chuqurroq tushunchaga ega bo‘ladilar.

“Eng yaxshi yordamchi o‘qituvchi” texnologiyasi o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini topishga, peshqadamlik, sardorlik sifatlarini, boshqaruvchanlik hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqalarga ko‘mak berish hissini uyg‘otishga yordam beradi.

Texnologiya maqsadi: qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini ta’minlash, baholash, topshiriqlarni tezda bajarishga o‘rgatish, o‘quvchilarga o‘qituvchi rolini o‘rgatish. Ushbu texnologiyani qo‘llash mazmuni 5-sinf o‘quvchilariga mustaqil o‘qish uchun berilgan E.Vohidovning “Tandir haqida ertak” asari misolida ko‘rib chiqilgan.

“*SWOT texnologiyasi”* asar mohiyatini tahlil qilishda, qahramonlar xarakterini o‘rganishda yaxshi samara beradi. Texnologiyani qo‘llashdan oldin o‘quvchilarga mazmuni tushuntirilib, izohlab beriladi, undagi so‘zlarning inglizcha va o‘zbekcha shakllari yozib ko‘rsatiladi va yozdirib qo‘yiladi. Ushbu texnologiya 5-sinfda o‘rganilishi mo‘ljallangan “Botir tikuvchi” ertagi mazmunini tahlil qilishda qo‘llanilgan. Guruhlarga “Botir tikuvchi” ertagi qahramonlarini tavsiflash va ularning o‘ziga xos jihatlarni tahlil qilish topshirig‘i beriladi. Birinchi guruh berilgan tahlil qolipiga ko‘ra Gansni shunday tavsiflashi mumkin:

S (Strengths) – kuchli tomoni: epchil, chaqqon va aqlli, har qanday vaziyatdan oson chiqib keta olishi.

W (Wearkesses) – zaif tomoni: kuchsizligi.

O (Opportunitiess) – imkoniyati: qirol o‘rniga o‘tirib, butun mamlakatni boshqarishi.

T (Threats) – xavf-xatar: ulkan odam va qirolning undan qutulishga harakat qilishi.

Texnologiyani o‘qituvchi ijodiy yondashib davom ettirgan holda yakunlashi kerak. O‘quvchilarga o‘zlarining tavsiflarini hayot bilan bog‘lab, badiiy umumlashma chiqarib, xulosaga kelish topshirig‘ini berish mumkin. Masalan, Gans, ya’ni botir tikuvchi o‘zi kichkina bo‘lishiga qaramay, juda uddaburon, chaqqon va topqir ekanligi uning zaif tomonlarini bekitib, kuchli ekanligini ko‘rsatib bergan. Bu texnologiya orqali bolalar asar qahramonlari bilan birga o‘z imkoniyatlarini belgilash va baholashni o‘rganadi.

Didaktik o‘yin texnologiyasi bolalar adabiyotini o‘qitishda samarali texnologiyalardan biri hisoblanadi. Didaktik o‘yin texnologiyasi orqali bir vaqtning o‘zida bolalar egallangan bilimlarni egallash va amaliyotda tekshirib ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bolalar adabiyotini o‘qitishni didaktik o‘yin texnologiyasi asosida tashkil etish quyidagilarga sharoit yaratadi:

1. Jamoa bo‘lib ishlash. Bugungi o‘quvchi ertaga jamoaga qo‘shilar ekan, u jamoaning bir qismi sifatida ma’lum bir funksiyani bajaradi. Shu jamoaning boshqa a’zolari bilan birgalikda umumiy faoliyatga hissa qo‘shadi.
2. O‘quvchini o‘z imkoniyatlarini erkin ifodalashga odatlantirish.
3. O‘quvchini mustaqil va kreativ fikrlashga o‘rgatish.
4. Muammolarini o‘zlari hal qilishga, ularga yechim topishga undash.

Bolalar adabiyotini didaktik o‘yinlardan foydalanib o‘qitishda darsning maqsadi, vazifalari, mantiqiy ketma-ketligi, o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tizimini aniq rejalashtirib olish talab qilinadi. Didaktik o‘yin davomida o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan o‘quv-biluv xarakteridagi topshiriqlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish yo‘llarini aniq bilish va oldindan loyihalashtirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarni didaktik o‘yinning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish, o‘yin taqozo etadigan vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash, har bir o‘quvchiga tegishli aniq yo‘llanmalar, ko‘rsatmalar berish samaradorlikni ta’minlaydi.

Tadqiqotimizda bolalar adabiyotini o‘qitishda didaktik o‘yinlarning mantiqiy va kreativ fikrlashga o‘rgatadigan turlarini qo‘llash maqsadga muvofiqligi asoslandi. Bunday didaktik o‘yinlarga PNI (positive, negative, interesting), ya’ni ijobiy, salbiy, qiziqarli va syujetli-rolli kabi didaktik o‘yinlardan foydalanishning afzalliklari yoritildi.

“PNI – ijobiy, salbiy, qiziqarli” texnologiyasi orqali o‘quvchilarga badiiy asardagi biror muammoning yechimi taklif etiladi. Ana shu qarorning qay darajada to‘g‘riligini ular ijobiy, salbiy va qiziqarli tomonlarini alohida ajratgan holda tahlil etishlari talab qilinadi. O‘quvchilar uchta ustunni to‘ldiradilar, o‘z fikrlarini bildiradilar va xulosa qiladilar. Bunday fikrlashga o‘rgatish mazmuni o‘quvchilarda sinchkovlikni, har bir voqea-hodisaning ijobiy va salbiy tomonlarini to‘laroq ko‘ra olishni shakllantiradi. Bundan tashqari, boshqalarning ham masalaga yondashuvlari bilan tanishadilar, chunki har bir o‘quvchi badiiy asar yoki uning qahramonlari, voqealari haqida o‘zining mustaqil fikrlarini bildirar ekan, masalaga yangicha bir qarash yuzaga keladi. Texnologiyani 6-sinf Adabiyot o‘quv dasturida

o‘rganilishi rejalashtirilgan L.Hyuzning “Rahmat sizga, xonim” asari[11] misolida qo‘llash muayyan natijalarni ta’minlaydi. O‘quvchilarga asar haqida quyidagicha muammoli savollarni berish mumkin:

1. Rojer zamsh tuflini o‘g‘rilik qilmasdan, boshqa yo‘l bilan ham sotib olishi mumkinmidi?

2. Luella xonimning hattoki Xudodan ham yashirishni xohlagan gunohlari bormidi yoki bolani xijolatli holatdan chiqarish uchun yolg‘on ishlatdimi?

3. Bola uydan chiqayotib ayolga nimadir demoqchi bo‘ldi, ammo aytolmadi. Bunga nima sabab deb o‘ylaysiz?

4. Ayol bolaning oilaviy sharoiti haqida umuman so‘ramadi, lekin o‘zi haqida gapirib berdi. Bundan qanday xulosaga kelish mumkin?

5. Bola nega ayol uni ko‘rib turishi mumkin bo‘lgan joyga borib o‘tirdi? Rojerning bu harakati sababi nima edi?

6. Nima deb o‘ylaysiz, Luella xonim Rojerga qanday saboq berdi? Sizningcha, xonim boshqacha yo‘l tutishi ham mumkinmidi?

Bobning ikkinchi faslida bolalar adabiyotini *STEAM texnologiyasi*dan foydalanib o‘qitish o‘quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishi bayon etilgan: muammolarni keng qamrovli tushunish; ijodiy fikrlash; muhandislik yondashuvi; tanqidiy fikrlash; ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash; dizayn va san’atni tushunish.

Tadqiqot ishida 6-sinfda H.Shayxovning “Birinchi sinov” asarini[12] STEAM texnologiyasi imkoniyatlari asosida tahlil qilish uchun quyidagi asosiy ko‘nikmalar belgilab olindi: badiiy asar bilan tanishtirish; savollar berish va muammolarni aniqlash; ma‘lumotni tahlil va talqin qilish; asar qahramonlarining xarakter xususiyatlarini tahlilga tortish; asar mazmunini mustaqil davom ettirish va loyihalashtirish;

O‘quvchilar bilishlari lozim bo‘lgan tushunchalar reja asosida belgilandi: hikoyani o‘qigan bo‘lishlari; hikoya qahramonlarini tanishlari; hikoyadagi voqea-hodisalarni bilishlari va tushunishlari; hikoya voqealari qayerda sodir bo‘lganini anglashlari. Mavzu asosidagi topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar geografiya fanidan olgan bilimlariga tayanishadi. Masalan, o‘quvchi osmon jismlaridan: oy, yulduz, quyosh nomlarini yozib, ularning rasmini chizishadi. Bu bolaning tasavvuri va fikrlash doirasini kengaytirishga yordam beradi.

Darslikning “Rangin tuyg‘ular” faslida jahon bolalar adabiyotidan O.Uayldning “Baxtli Shahzoda” ertagi va unga bog‘liq tarzda badiiy adabiyotda jonlantirish san’ati haqida ham ma’lumotlar berib o‘tilgan. Tabiat hodisalari, hayvonot olamiga muhabbat, ular bilan suhbat qurishga intilish, ayniqsa, qushlarga bo‘lgan qiziqish bu yoshdagi bolaning ruhiyatiga xosligi yaxshi ma’lum. O‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratish va ularga texnologiyaning S – sicense qismi haqida tushuncha berib o‘tish maqsadga muvofiq. Unga ko‘ra o‘quvchilar tabiiy fanlarga (geografiya, zoologiya, botanika, biologiya) oid bilimlarini yodga olishadi. Har bir guruhga asar yuzasidan topshiriqlar beriladi.

[11] Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Yangi nashr, 2022. – B. 80.

[12] O‘sha manba. – B. 94.

1-guruhga asarda qaldirg‘och tilidan Misr yurtiga sayohat qilish topshirig‘i yuklatildi. Bunda o‘quvchilar Misrning tabiati, ob-havosi, shaharlari haqida ma’lumot berib o‘tishlari kerak. O‘z fikrlarini dunyo xaritasidan foydalangan holda bayon qilishlari lozim bo‘ladi. Bu orqali o‘quvchilarning geografiyadan olgan bilimlari yodga olinib, mustahkamlanadi.

2-guruhga asardagi Baxtli Shahzoda San-Susi saroyida baxtiyor yashaganini aytib o‘tishi sahnasi beriladi. Demak, o‘quvchilar shu saroy haqida ma’lumot berishlari kerak, ya’ni uning qayerda joylashgani, kim tomonidan qurilgani, saroy qanday ma’noni anglatishi kabi ma’lumotlarni aniqlashlari zarur. Yoki qisqacha intervyu tayyorlansa ham bo‘ladi. Bu orqali o‘quvchilar tarix va geografiyadan olgan bilimlarini esga olishadi.

3-guruhga Nil daryosi, Misrdagi shohlarning daxmalari va mo‘miyolar haqida ma’lumot berish vazifasi topshiriladi. Bunda o‘quvchilar tarix fanidan olgan bilimlariga tayanishadi. Ushbu topshiriq orqali adabiyotning tarix va geografiya fanlari bilan aloqadorligi tushuntirib o‘tiladi.

O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida mavzudan uzoqlashishi, diqqati tarqalishi holatlari bo‘lishi mumkin yoki, aksincha, ular katta qiziqish bilan yana qanday topshiriqlar bajarishni kutishlari mumkin. Shunday vaziyatlarda ularga yana bir ijodiy topshiriq berish mumkin. STEAM texnologiyasining E – enginering (muhandislik) qismi jarayonda o‘quvchilarga asar yuzasida amaliy topshiriqlar berishni taqozo etadi.

Har bir guruh asarda berilgan “xo‘roz parrak” tasviriga diqqat qilishi, uni yasab, foydali xususiyatlarini va nega Baxtli Shahzoda bilan birga tilga olinayotganini izohlashga chaqiriladi. O‘quvchilar bu topshiriqni bajarib bo‘lishgach, ularga STEAM texnologiyasining keyingi – A (art) qismi tushuntiriladi. Bunda o‘quvchilar asarni san’at bilan bog‘lashlari kerak bo‘ladi. Mazkur jarayonda ularga quyidagicha topshiriq beriladi:

1-guruhga: Baxtli Shahzodaning xursand va qayg‘uli holatdagi tasvirini chizing va ta’riflang. Sizningcha, Baxtli Shahzoda qachon o‘zini baxtli his qildi? Uning shu baxtli holatini tasvirlang. Siz ertak so‘ngida Baxtli Shahzodaning haykali qanday ko‘rinishda bo‘lishini xohlardingiz? Fikringizni asoslashga harakat qiling.

2-guruhga: gugurtfurush qizcha turgan joy dekoratsiyasini yarating va izohlab bering (yoki asardagi gugurtfurush qizcha obrazini sahnalashtiring, uning holatini ko‘rsatib, sharhlab bering).

3-guruhga: tasavvuringizdagi eng noyob ikkita narsani tasvirlang va izohlang.

O‘quvchilar bu topshiriqni bajarishgach, ular texnologiyaning oxirgi qismi – M-(math) matematika qismi bilan tanishtiriladi. Ularga asarni endi matematika fani bilan bog‘lashlari tushuntiriladi. Asarni matematika fani bilan quyidagicha bog‘lash mumkin. Amaldagi 4-sinf “Matematika” darsligida “Ustunli diagramma” mavzusi berilgan[13]. Ma’lumotlarning ko‘p yoki kamligiga ko‘ra ustunlar katta yoki kichkina bo‘lib borishi mumkin. Ustunli diagrammalarni asarga qo‘llash

[13] Repyova I. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 4-sinfi uchun darslik. Matematika**.** – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – B. 93.

